

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MATKARIMOVA NILUFAR BOQIJON QIZI**

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA PREZIDENT MAKTABLARI  
O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH  
TEXNOLOGIYASI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Matkarimova Nilufar Boqijon qizi**

Акмеологик yondashuv asosida Prezident maktablari o'quvchilarining  
ijodiy qobiliyatini shakllantirish texnologiyasi ..... 3

**Маткаримова Нилуфар Бакижан кизи**

Технология формирования творческих способностей учащихся  
Президентских школ на основе акмеологического подхода..... 25

**Matkarimova Nilufar Bokijon qizi**

The technology of forming the creative abilities of pupils of Presidential  
schools based on an acmeological approach..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 53

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MATKARIMOVA NILUFAR BOQIJON QIZI**

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA PREZIDENT MAKTABLARI  
O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH  
TEXNOLOGIYASI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped4810 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspi.uz/uz/ilmiy-kengash) va “ZiyoNET ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xodjayev Begzod Xudoyberdievich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xodjaniyazov Sardor Umarovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Ma’murov Baxodir Baxshullayevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg’ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi,104-uy. Tel: (+99870) 712-27-55; faks: (+99870) 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz.)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-o‘y. Tel.: (+99870) 712-27-55; faks: (+99870)712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ -raqamli reestr bayonnomasi).

**U.N.Xodjamqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

**F.T.Rajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, geografiya fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**V.B.Fayziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
b.f.d. (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning zamonaviy trendlariga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shuningdek, xalqaro ta'lim tajribalaridan kelib chiqib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan STEAM ta'lim tizimining ham keng joriy etilishi bu borada yuqori natijaga erishishda zamin yaratmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim dasturiga kiritilgan ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga tizimli yondashuv bugungi kunda ko'pchilik davlatlar amaliyotchi-o'qituvchilari tomonidan samarali ekanligi alohida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, ijodiy qobiliyatni pedagogik jarayonda namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillarni aniqlashtirish, ijodiy qobiliyat diagnostikasini amalga oshirish va o'quvchilarning individual-intellektual xususiyatlarini o'rganishga doir qator ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda.

Dunyoda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish, ijodiy tafakkur, kreativ salohiyatni tarkib toptirishning innovatsion modellarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan va media ta'lim imkoniyatlarini integratsiyalash orqali o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlashtirish, ijodiy faollikni oshirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, akmeologik yondashuv asosida ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish yanada dolzarblik kasb etadi. Shu bilan birga, o'quvchilarda innovatsion ta'lim sharoitida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini tizimli tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda iqtidorli o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ularni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim yaratish, iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish"<sup>1</sup> muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, Prezident maktabi o'quvchilarining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish, ta'lim jarayonlariga SMART-o'qitish modeli va texnologiyasini joriy etishning didaktik tizimini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi "Prezident maktablari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 526-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.06.2019-y., 09/19/526/3338-son.

to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 141-son "Ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamiz olimlaridan A.Abduqodirov, T.Aliboyev, Z.Nishanova, M.Tilakova, Ch.Shokirova, M.Qulaxmetov, M.Mamatkulova, G.Ibragimova, A.Aripjanova, Sh.Sharipovlarning ilmiy ishlarida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish, talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish, professor-o'qituvchilarning kreativ salohiyatini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan bo'lsa, B.Ma'murov, G.Ernazarovalarning fundamental tadqiqotlarida kasbiy ta'lim jarayonlariga akmeologik yondashuvni tatbiq etish muammosi yechimiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan G.Mironova, A.Glinskiy, L.Gribenyuk, N.Kurbet, N.Nekrasova, V.Medvedev, A.Xutoroskiy, D.Bogoyavlenskaya, I.Pchelinseva, A.Kosogova, M.Meerovich, L.Shragina kabilar iqtidorlik, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarning psixologik-pedagogik jihatlari, A.Bodalyev, A.Derkachlar tomonidan akmeologik yondashuv asosida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish mexanizmlari o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan Barron Frank, A.Meadov, S.Rubinshteyn, D.MacKinnon, E.Galanter, M.Murdock, D.Myers A.Miller, S.Parnes, M.Runco kabi olimlar o'z ishlarida qobiliyat, intellekt, kreativlik muammosiga to'xtalib o'tganlar. Shu bilan birga, Y.Guilford, P.Christensenlar ijodiy qobiliyatni shaxs xususiyatlaridan biri sifatida o'rganishgan. J.Kasof, E.Jekobson, N.Guilford, B.Hennessey, T.Amabile, A.Gruszka, E.Necka, N.Xryashchevalar bu borada tadqiqotlar olib borib, muammoning nazariy-metodologik jihatlari yoritib berishgan.

Biroq STEAM ta'limga ustuvorlik berish asosida Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini ochib berish, mazkur jarayonni amalga oshirish modeli va texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha maxsus ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Ana shu sababli Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish muammosini maxsus tadqiq etish lozim, degan xulosaga kelindi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170923121. "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" (2017-2020 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Prezident maktablari o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ijodiy qobiliyatni shakllantirish muammosining pedagogik-psixologik adabiyotlarda o'rganilishi va Prezident maktablaridagi o'quv-tarbiya jarayonlarining amaliyotdagi holatini tahlil qilish;

akmeologik yondashuvning ijodiy qobiliyatni shakllantirishga doir pedagogik imkoniyatlarini yoritib berish;

Prezident maktablari o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish modelini takomillashtirish;

Prezident maktablari o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyektini** sifatida Prezident maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Jizzax, Andijon hamda Toshkent shahridagi Prezident maktablarining 144 nafar respondent-o'quvchisi jalb qilindi.

**Tadqiqotning predmetini** Prezident maktablari o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat); maxsus psixologik-pedagogik metodikalar; pedagogik eksperiment; natijalarni matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Prezident maktabi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish tuzilmasi va komponentlari ijodkorlik, interfaollikni ta'minlash, amaliy tadbirlarni tashkil etishning algoritmik bosqichlarini qat'iy belgilash, ijodiy-ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqish va taqdimotini o'tkazish, sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kompleks yondashuvni tatbiq etish imkoniyatini ta'limiy maqsad bilan identivligini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirilgan.

Prezident maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari mantiqiy, muammoli masalalarni adekvat yechish, bilim, ko'nikma va malakalarning vizualligini ta'minlash asosida ijodiy tafakkur mustaqilligiga erishish, tahliliy-qiyosiy fikrlash jarayonlarining jamoaviy ijodiy faoliyat bilan kooperativlik darajasini kengaytirish orqali takomillashtirilgan;

Prezident maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish modelining amaliy komponenti STEAM metodlari asosida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishning integrativ mazmunini loyihalash, innovatsion texnologiyalar, ilmiy-ijodiy muhit va innovatsion faoliyat uyg'unligini ta'minlashda akmeologik yondashuvga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan;

Prezident maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish texnologiyasi motivatsion-diaagnostik, axborotli-kognitiv, faoliyatga doir, korreksion, qadriyatli bosqichlarga asoslangan texnologik modelni loyihalash, "Kelajak algoritmi", "Qadriyatlar tuzilmasi", "Kelishuv va ziddiyat", "Ko'rinmas sovg'a" kabi mualliflik metodlari asosida texnologik xaritaning ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Pedagogikaning pragmatik aspektlari” nomli darslik nashr etilgan;

“Akmeologik yondashuv asosida o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish” nomli metodik qo‘llanma chop etilgan;

Prezident maktabi o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishga doir “Leaders club” to‘garagining mashg‘ulotlar dasturi va metodik ta‘minoti ishlab chiqilgan;

Prezident maktabi o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ijodiy qobiliyatni shakllantirish muammosining pedagogik-psixologik adabiyotlarda o‘rganilishi va Prezident maktablaridagi o‘quv-tarbiya jarayonlarining amaliyotdagi holatining tahlil qilinganligi, “qobiliyat”, “ijod”, “ijodkorlik”, “ijodiy qobiliyat” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatining ochib berilganligi, ijodiy qobiliyatni shakllantirishga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarning aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati akmeologik yondashuvning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga doir didaktik imkoniyatlarining yoritib berilganligi, ijodiy qobiliyatni shakllantirish modeli va texnologiyasining takomillashtirilganligi, mazkur jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Prezident maktabi o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

Prezident maktabi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish tuzilmasi va komponentlarini ijodkorlik, interfaollikni ta‘minlash, amaliy tadbirlarni tashkil etishning algoritmik bosqichlarini qat‘iy belgilash, ijodiy-ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqish va taqdimotini o‘tkazish, sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda kompleks yondashuvni tatbiq etish imkoniyatini ta‘limiy maqsad bilan identivligini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalar Toshkent, Jizzax hamda Andijon shahridagi Prezident maktablari o‘quv-tarbiya amaliyotiga joriy etilgan (Prezident ta‘lim muassasalari agentligining 2022-yil 16-sentabrdagi 02-05-2029-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Prezident maktablarida ijodiy muhit barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilgan;

Prezident maktabi o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik o‘ziga xosliklarini mantiqiy, muammoli masalalarni adekvat yechish, bilim, ko‘nikma va malakalarning vizualligini ta‘minlash asosida ijodiy tafakkur mustaqilligiga erishish, tahliliy-qiyosiy fikrlash jarayonlarining jamoaviy ijodiy faoliyat bilan kooperativlik darajasini kengaytirish orqali aniqlashtirish hamda Prezident maktabi o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish modelining amaliy komponentini STEAM metodlari asosida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini

shakllantirishning integrativ mazmunini loyihalash, innovatsion texnologiyalar, ilmiy-ijodiy muhit va innovatsion faoliyat uyg'unligini ta'minlashda akmeologik yondashuvga ustuvorlik berish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi magistratura mutaxassisligi uchun yaratilgan "Pedagogikaning pragmatik aspektlari" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'i, 63-253-raqamli guvohnoma). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni Prezident maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishga tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

Prezident maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish texnologiyasini motivatsion-diaagnostik, axborotli-kognitiv, faoliyatga doir, korreksion, qadriyatli bosqichlarga asoslangan texnologik modelni loyihalash, "Kelajak algoritmi", "Qadriyatlar tuzilmasi", "Kelishuv va ziddiyat", "Ko'rinmas sovg'a" kabi mualliflik metodlari asosida texnologik xaritaning ishlab chiqish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi magistratura mutaxassisligi uchun yaratilgan "Pedagogikaning pragmatik aspektlari" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'i, 63-253-raqamli guvohnoma). Natijada, Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, 1 ta darslik, 1 ta metodik qo'llanma, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat bo'lib, asosiy matn 127 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning "**Prezident maktablari o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida ijodiy qobiliyatni shakllantirish muammosining pedagogik-psixologik adabiyotlarda o'rganilishi hamda Prezident maktablarida o'quv-tarbiya jarayonlarining tashkil etilishi va ijodiy faoliyatga yo'naltirilganlikning amaliyotdagi holati yoritib berilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafida jamiyat, ilm-fan, texnologiya rivojining zamonaviy bosqichida murakkab vaziyatlarda noan'anaviy yechimlarni izlab topish, ijodiy fikrlash, improvizatsiya qilish, innovatsion g'oyalarni yaratishga qodir ijodkor yoshlarga ehtiyoj ortib borayotganligi, bu esa, zamonaviy fan va texnikaning rivojlanishi, innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi, informatsion axborot oqimining shiddat bilan o'sishi, mamlakatning rivojida innovatsion o'zgarishlar natijasida yuzaga kelayotganligi bilan bog'liq qator masalalar bayon etilgan. Shuningdek, ijodkor yoshlarni tarbiyalash, yetuk kadrlar zahirasi shakllantirish muhim omil ekanligi, ana shu sababli ijodkorlik qobiliyati muammosi o'z dolzarbligini saqlab qolayotganligi asoslangan.

Qobiliyat – insonning individual salohiyati, imkoniyatlarining ifodasi bo'lib, u bevosita bilimdan keskin farqlanadi, ya'ni bilim mutolaa, ilmiy faoliyat natijasi hisoblansa, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyatidir. Qobiliyat – ko'nikma va malakadan farq qiladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mahorat bilan qobiliyat bir xil tarzda talqin etiladi. Qobiliyat ta'lim jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun ham qobiliyat shaxs faoliyati talablariga javob bera oladigan va yuqori natijalarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar majmuidir.

Ijodkorlik noodatiy fikrlarni o'ylab topish, an'anaviy fikrlash doirasidan chetlashish, muammoli masalalarni tezda hal etish holatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ijodkorlik yangi g'oyalarni yaratishga doimiy tayyorlik bilan tavsiflanadi va qobiliyat tuzilmasi komponenti bo'lib hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyat – bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oya farazini ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlardan foydalanish, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilish yo'llarini izlash hamda yechimini topish, natijada yangi original mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san'at asari, tavsifnoma va boshqalar) sifatlari majmuidir.

Dissertatsiyaning birinchi bobida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish uchun zarur psixologik-pedagogik omillarga alohida to'xtalib o'tilgan. Shubhasiz, yuksak ijodiy qobiliyatlar qandaydir yagona va hatto bir necha omilning emas, balki pedagogik-psixologik shart-sharoitlar kompleksi mahsulidir. Biroq ushbu inkor etish qiyin bo'lgan mulohazani e'tirof qilish birinchidan, ijodkorlikni rivojlantiruvchi bir qator omillarni sun'iy hosil qilishning iloji yo'q, degani emas. Ikkinchidan, psixik taraqqiyotning kompensatsiya qonuniga ko'ra, muayyan omilning yetishmayotgan ta'siri boshqa omillar bilan ma'lum darajada qoplanishi mumkinligi, ehtimoldan holi emas.

Xususan, bir qator tadqiqotlarda maxsus uyushtirilgan mashg'ulotlar yordamida shaxs ijodiy qobiliyati taraqqiyotida ijobiy dinamikaga erishish mumkinligi isbotlanmoqda. Masalan, o'quvchilar bilan art-terapiya va improvizatsiya usullari vositasida amaliy mashg'ulotlar o'tkazilsa, ijodkorlikning qator ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli o'sishga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

O'quvchida ijodiy qobiliyatning rivojlanishi mazkur hodisaning tabiati va namoyon bo'lishini belgilaydigan turli-tuman omillarga bog'liq. Ushbu omillarni uchta eng umumiy guruhga birlashtirish mumkin: birinchi guruhga ijodiy shaxsning shakllanishini belgilaydigan tabiiy moyilliklar va individual xususiyatlar kiradi;

ikkinchi guruh ijtimoiy muhitning ijodiy qobiliyatning rivojlanishi va namoyon bo'lishiga ta'sirining barcha shakllarini o'z ichiga oladi. Uchinchi esa, ijodkorlik rivojlanishini faoliyatning tabiati va tuzilishiga bog'liqligidir.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, iqtidorli yoshlar bilan ishlashning yagona va samarali tizimini yaratish, yosh avlodning iste'dodi va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun bunday yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ilg'or xorijiy tajribalar asosida darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, shu jumladan, elektron shaklda nashr etish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimiz manfaatlarini professional va yuqori darajada munosib ifoda eta oladigan, talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Tadqiqot ishi obyektini bo'lgan muassasa – Prezident maktablari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4199-son Qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

Prezident maktabi yetuk, malakali kadrlar tayyorlashda yuqori natijalarni qo'lga kiritayotgan ta'lim muassasasi sifatida salohiyatli, ijodkor yoshlarni tarbiyalamoqda. Mazkur maktab ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasasi hisoblanib, uning faoliyati yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun qobiliyatli o'quvchini aniqlash va o'qitishni ta'minlashga qaratilganligi bilan boshqa ta'lim muassasalaridan farq qiladi.

O'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan o'qitish tamoyiliga tayanish zamonaviy ta'lim tizimida eng maqbul yo'l hisoblanadi. Prezident maktablari o'quv jarayoni ana shunday tarzda tashkil etiladi, o'quvchining ijodiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi va bu jarayonda o'qituvchi ham bevosita ishtirok etadi.

O'quvchi ijodiy faoliyatini tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchini shaxsiy ahamiyatga molik shunday darajaga ko'taradiki, bu holat o'z navbatida, ijodiy faoliyatning har qanday turida faollik va ijodkorlikning kuchayishiga imkon yaratadi. Natijada, ijodiy faoliyat tashkiliy jihatdan murakkab, ya'ni “qismlarining o'zaro ta'siri ularning o'zidan ham ko'ra muhimroq” bo'lgan yaxlitlik sifatida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda ularning bilim, ko'nikma va malakalari, kompetensiyalari monitoringini tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talab shuki, nazorat uchun berilgan vazifalar ta'lim mazmuni, o'quv maqsadlari, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga mutanosib bo'lishi lozim.

Dissertatsiyaning **“Akmeologik yondashuv asosida Prezident maktablari o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishning amaliy-texnologik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida akmeologik yondashuvning o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga doir didaktik imkoniyatlari, mazkur jarayonni amalga oshirish modeli va texnologiyasi yoritib berilgan.


Akmeologik yondashuv – bu shaxsiy-kasbiy o'sish bilan bog'liq muammolar va ularni hal qilish uchun tamoyillar, texnikalar va usullar tizimi hisoblanib, ular metodologik yondashuvlar, o'rganilayotgan obyektga nisbatan pozitsiyaga,

shuningdek, akmeologik tadqiqot usullarini qo'llash va amaliy muammolarni hal qilishga asoslangan.

Akmeologik yondashuvda muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya berish, faoliyatda o'z-o'zini takomillashtirish va muvaffaqiyatni o'z kasbida amalga oshirish istagini shakllantirish, kasbiy bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda yangilab turish qobiliyati hamda ehtiyojlarini ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirishga yo'naltirish, kasbiy mahorat cho'qqilarini egallash yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuvni ta'lim amaliyotida samarali qo'llash orqali o'quvchi shaxsining akmeologik yo'nalganligi (oriyentatsiyasi) shuningdek, ijodiy qobiliyatini shakllantirish mumkin.

Akmeologik yondashuv – bu shaxs umumiy rivojining sifat xususiyati bo'lib, o'quv-bilish faoliyatida o'z-o'zini rivojlantirishga xizmat qiladi. U quyidagi tarkibiy qismlarga ega: qadriyatli yo'nalishlar (ijtimoiy shartli va shaxsiy qadriyatlar); maqsadni belgilash (ijtimoiy va shaxsiy (self) maqsadlarni anglash); motivatsiya (ijodiy faoliyat jarayoni va mazmuniga qiziqish); muvaffaqiyatga intilish (yutuqqa erishish motivatsiyasi, o'z-o'zini rivojlantirish istagi, ijodiy faoliyatga tayyorlik va boshqalar); kognitiv shakllanish darajasi; hissiy-baholash; motivatsion-xulq-atvor mezonlari.

Tadqiqotning muhim yo'nalishi sifatida Prezident maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda STEAM-ta'lim modeliga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, mazkur modelga asoslanib, Science – ta'lim, Technology – texnologiya, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san'at, Mathematic – matematika fanlari asosida ta'lim jarayonini tizimli tashkil qilish orqali o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga oid ta'limiy tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Buning uchun o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish komponentlariga muvofiq, integratsion “tayanch” fanlar belgilab olindi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishning integrativ mazmuni**

STEAM yondashuvga muvofiq, o'quvchilar mustaqil o'z ustida ishlashga ko'proq vaqt ajratishadi, muammolarni izlab topish va ularni mustaqil ravishda hal qilishni o'rganadilar. Shu bilan birga, o'quvchilar o'zlarining muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz ta'limiy tajribalarini o'zaro muhokama qilish asosida bilim, ko'nikma almashishadi hamda loyihalar ustida birgalikda ishlashadi. Bunday faoliyat bevosita kooperativ ta'limga asoslangan holda amalga oshirilib, natijada ijodiy jamoaviy muhit hosil qilinadi.

STEAM yondashuv – o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlar, fanga doir materiallarni eslab qolishga emas, balki mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

STEAM-metod quyidagilarga asoslanadi:

- yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatini shakllantirish;
- mustaqil o'z-o'zini tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- jamoada ishlash ko'nikmalarini qaror toptirish;
- xatolarni doimiy ravishda tuzatish (korreksion faoliyat);
- o'quv muammolarini hal qilishda tanqidiy tafakkurni tarkib toptirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, akmeologik yondashuv orqali Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishga doir empirik-analitik tadqiqot natijalari asosida quyidagi pedagogik tizim ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).

2-rasmda ifoda etilgan akmeologik yondashuv asosida o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishning pedagogik tizimi mazkur jarayonni amalga oshirish modeli va pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish uchun asos sifatida xizmat qildi.


O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatning samarasi eng avvalo, uning maqsadini to'g'ri belgilab olinishi bilan bog'liq. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model o'z oldiga aniq maqsadni belgilab olgan: Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishning zaruriy pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish. Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish modeli qo'yilgan maqsadga erishishni ta'minlaydigan uchta blokni o'z ichiga qamrab olgan (3-rasmga qarang);

1. Maqsadli-jarayonli blok o'zida ijtimoiy buyurtma, maqsad va vazifalarni aks ettirdi. Ijtimoiy buyurtma sifatida Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini tarkib toptirish belgilab olingan. Ijodiy qobiliyatni shakllantirish jarayonida maqsadni aniqlash ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida alohida ahamiyat kasb etuvchi omillar ta'sirini hisobga olishni ta'minlaydi.


2. Amaliy blok Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan beshta algoritmik bosqich hamda tashkiliy shart-sharoitlarni o'zida ifoda etgan: faoliyatni rejalashtirish; tashkil etish; amalga oshirish va baholash; refleksiya; korreksiya.

3. Baholovchi-natijaviy blok o'zida Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatning shakllanganligini baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalarini aks ettirgan. Har bir mezonga mos ko'rsatkichlarni aniqlashtirishda bir tomondan, uni

tabiiy sharoitda tekshirish imkoniyatining mavjudligi, ikkinchi tomondan, tashxis vositalarini tanlashning qulayligi hisobga olindi.



**2-rasm. Akmeologik yondashuv asosida o’quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishning pedagogik tizimi**



**3-rasm. Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish modeli**

Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari majmui deganda, mazkur jarayonning yuqori darajada amalga oshishini ta'minlaydigan zaruriy va muhim chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

Tadqiqotda O.Lesher tomonidan taklif etilgan pedagogik shart-sharoitlar tasnifidan foydalanildi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, tadqiqotning o'ziga xos jihatini hisobga olib, ham nazariy, ham amaliy tavsifga ega pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish lozim, degan xulosaga kelindi.

Nazariy tavsifga ega pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilar kiritildi: Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan "Leaders club" to'garagini tashkil qilish; Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishda moslashuvchan ko'nikmalarning (Soft skills) muhimligini asoslash.

Amaliy pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilar kiritildi: o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etish; o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan samarali shakl, metod va vositalarni tizimlashtirish.

Prezident maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishda individual, guruhli, jamoaviy ish shakllaridan uyg'un tarzda foydalanishga katta e'tibor qaratildi. Ayniqsa, o'quvchilarning hamkorlikda ishlash ko'nikmasini tarkib toptirish orqali ularning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga muhim ustuvorlik berildi. Ana shu jihatni hisobga olgan holda, tadqiqot doirasida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishning lokal-modulli texnologiyasi ishlab chiqildi.

Texnologiyaning tasnifiy belgilari sifatida quyidagilar aniqlab olindi: qo'llanilishi darajasi va tavsifi: lokal darajada qo'llanilish tavsifiga ega mezotexnologiya; metodologik yondashuv: akmeologik; falsafiy asosi: antropologik; dialogik; rivojlanishning yetakchi omillari: sotsiogen; psixogen; tajribani o'zlashtirishning ilmiy konsepsiyasi: assosatsiativ-reflektorli + faoliyatli + rivojlantiruvchi + bixevioristik; shaxsni rivojlantirish sohasiga yo'nalganligi va tuzilishi: SHKS (shaxs kreativligi sohasi) + SHQS (shaxs qobiliyatligi sohasi) + HAS (harakatli-amaliy soha); mazmunli tavsifi: faoliyatga yo'naltirilgan; ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi: ta'limiy (didaktik), tarbiyaviy, rivojlantiruvchi; qo'llaniladigan metodlari: dialogli; vaziyatli-muammoli; rolli-o'yinli; izlanishli-tadqiqotchilik; tashkiliy shakllari: individual; guruhli; juftliklarda ishlash; jamoaviy; qo'llaniladigan vositalari: tarqatma materiallar; hujjatli filmlar; badiiy adabiyotlar; multimedia; ta'lim oluvchiga yondashuv va birgalikdagi o'zaro harakat tavsifi: kooperativ va jamoaviy ijodiy ish; qo'llanilish toifasi: Prezident maktabi o'quvchilari uchun.

Texnologiyaning protsessual aspekti akmeologik yondashuv asosida Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishning texnologik xaritasini o'zida aks ettiradi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**

**Prezident maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishning texnologik xaritasi**

<b>O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish</b>		
<b>Bosqichlari</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Faoliyatdan kutiladigan natija</b>
Motivatsion-diagnostik	Ta'lim oluvchilarda ijodiy qobiliyatning shakllanganlik darajasini tashxis etish, ijodiy qobiliyatni namoyon etishga bo'lgan motivatsion munosabatni rag'batlantirish	O'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ijodiy faoliyatiga jalb etish motivatsiyasi rag'batlantiriladi
Axborotli-kognitiv	Prezident maktabi o'quvchilarining ijodiy faoliyat va uning o'ziga xosliklari haqidagi tasavvurlarini boyitish hamda bilimlarini tarkib toptirish	Ijodiy qobiliyatni shakllantirishda STEAM yondashuv va metodlardan foydalanish yo'llari o'zlashtiriladi
Faoliyatga doir	Prezident maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan kreativ muhitini yaratish	Ijodiy qobiliyatni shakllantirishga qaratilgan "Leaders club" to'garagi faoliyati yo'lga qo'yiladi
Korreksion	O'quv natijalarini doimiy ravishda kuzatib borish va ijodiy qobiliyatlarining namoyon bo'lish ko'rsatkichlarini monitoring qilish asosida o'quvchilarda ijodiy qobiliyatning shakllanganlik darajasini baholash.	Korreksion-rivojlantiruvchi metodlar asosida ijodiy qobiliyatning shakllanganlik darajasi baholanadi.
Qadriyatli	O'quvchilarda o'zining ijodiy qobiliyatini tahlil qilish, baholash va talqin qilishga doir vaziyatlarni yaratish	O'quvchilarda ijodiy faoliyatga nisbatan qadriyatli munosabat shakllanadi

Texnologiyaning metodik ta'minoti Prezident maktabi o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish ishlarini tashkil etish shakl, metod va vositalarini o'zida aks ettiradi (2-jadvalga qarang).

**2-jadval**

**Prezident maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish texnologiyasining metodik ta'minoti**

<b>Texnologik bosqichlar</b>	<b>Shakllar</b>	<b>Metodlar</b>	<b>Vositalar</b>
<b>Motivatsion bosqich</b>	Individual, juftliklarda ishlash, guruhli, jamoaviy, trening, debat, sinf va sinfdan tashqari ishlar	Aqliy hujum, yelpig'ich, muammoli tavsifdagi suhbat	Darslik, ommaviy axborot vositalari, mashq daftarlari, slayd-prezentatsiya, elektron doska, tarqatma materiallar, Internet
<b>Kognitiv</b>		Tushuntirish, matn bilan ishlash, ma'ruza-munozara, dialogli muloqot, tushunchalarni aniqlash, tushunchalar tahlili	
<b>Amaliy</b>		Muammoli vaziyat, sinkveyn, trening, panorama, bahslashuv, keys-stadi, kelajak algoritimi	
<b>Korreksion</b>		Korreksion-rivojlantiruvchi ish metodlari	
<b>Qadriyatli bosqich</b>		Rolli o'yin, qadriyatlar tuzilmasi, fikr bildirish, bahslashuv, kelishuv va ziddiyat, ko'rinmas sovg'a	

Texnologiyaning motivatsion-diaagnostik bosqichini amalga oshirishda aqliy hujum, yelpig'ich, muammoli tavsifdagi suhbat kabi metod va interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiyaning axborotli-kognitiv bosqichi o'quvchilarda intellektual faoliyat, ya'ni fikrlashning o'ziga xosligi, kreativligi, tezligi, aqliy harakatlarning tizimligi, tahlil va umumlashtirish qobiliyatining yuqori mahsuldorligiga erishishga qaratilgan. Mazkur bosqichda tushuntirish, matn bilan ishlash, ma'ruza-munozara, dialogli muloqot, amerikancha mozaika, tushunchalar tahlili, ijodiy test kabi metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Faoliyatga yo'naltirilgan bosqich o'z ichiga ijodiy vazifalarni hal etishning gnostik (bilishga doir), loyihalashtirishga doir, kommunikativ va tashkilotchilik unsurlarini qamrab oladi. Mazkur bosqichda o'quv loyihasi, guruhiy tadqiqot o'tkazish, o'yinli metodlar, treninglar, aniq vaziyatlarni tahlil etish (keys-stady), panorama kabi metod va usullardan foydalanish mumkin.

